



UDK: 355.23:37.013.42

Yorqinoy ROZIMOVA,

O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti dotsenti, tarix fanlari doktori, mayor

T.f.n., dotsent Sh.Alimov taqrizi asosida

“OLIIY HARBIIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNING AHAMIYATI”

Аннотация

Bu maqolada milliy mustaqillik tufayli jamiyat hayotining barcha sohalarida asta-sekin amalga oshirilayotgan poklanish, ayniqsa ma’naviy hayot sohasida yaqqol namoyon bo‘la boshlagani, xalqimiz o‘zligini, o‘z tarixini anglay boshlagani hamda harbiy ta’lim muassasalarida ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda nimalarga e’tibor qaratilishi kerakligi haqida keng va atroflicha fikrlar berilgan. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda ma’naviy-tarbiyaviy ishlar sohasida e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan muammolar haqida fikr yuritilgan. Ushbu maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar olib borishning ahamiyati, maqsad va vazifalari tahlil qilingan. Harbiy kadrlarni har tomonlama yetuk, Vatanga sadoqatli, yuksak ma’naviy-ma’rifiy bilimlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashda mazkur ishlarning tutgan o‘rni va samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviy meros, vatanparvarlik, fuqarolik burchi kabi tushunchalarni harbiylar ongiga singdirishda ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning zamonaviy usullari va yondashuvlari tahlil etilgan. Maqolada soha bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham keltirilgan bo‘lib, ular ta’lim jarayonida foydalanish uchun ahamiyatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Siyosiy barqarorlik, ruhiy oziq, ijtimoiy hodisa, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, harbiy ta’lim, tarbiya, vatanparvarlik, ma’naviyat, oliy harbiy ta’lim muassasalari, fuqarolik burchi, milliy qadriyatlar, harbiy kadrlar tayyorlash, yuksak ma’naviylik.

“В ВЫСШИХ ВОЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ”

Аннотация

В данной статье всесторонне освещены вопросы национальной гордости как одного из слагаемых духовно-нравственной зрелости. Даны понятия о том, что национальная гордость предполагает безграничное уважение и почтение созданным за тысячелетия материальным и духовным богатствам, историческому наследию, традициям и обычаям, правилам поведения, образу жизни, высокой духовности, всем историческим достижениям и урокам своего народа, что её бережное хранение является священным долгом каждого гражданина. В данной статье проанализированы значение, цели и задачи проведения духовно-просветительской работы в высших военных учебных заведениях. Показана роль и эффективность этой деятельности в воспитании военных кадров как всесторонне развитых, преданных Родине, обладающих высокими духовно-просветительскими знаниями личностей. Также рассмотрены современные методы и подходы духовно-просветительской деятельности в процессе формирования у военных таких понятий, как национальные и общечеловеческие ценности, духовное наследие, патриотизм и гражданский долг. В статье приведены практические рекомендации по данной сфере, которые могут служить полезным источником в образовательном процессе.

Ключевые слова: Политическая стабильность, духовная пища, социальное явление, духовно-просветительская работа, военное образование, воспитание, патриотизм, духовность, высшие военные учебные заведения, гражданский долг, национальные ценности, подготовка военных кадров, высокая духовность.

“IN HIGHER MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS THE IMPORTANCE OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK”

Annotation

This article extensively and comprehensively covers the ideals of independence and national pride, one of the facets of the spiritual and moral perfection in the military educational institutions. moral values, historical heritage, customs, traditions, ethics, way of life, high spirituality, with unlimited respect and respect for all historical achievements and lessons if it is a sacred duty to protect that about concepts. This article analyzes the significance, goals, and objectives of conducting spiritual and educational work in higher military educational institutions. It highlights the role and effectiveness of such activities in training military personnel to become well-rounded individuals who are loyal to the Homeland and possess high spiritual and educational knowledge. The article also examines modern methods and approaches of spiritual and educational activities in instilling concepts such as national and universal values, spiritual heritage, patriotism, and civic duty in the minds of military personnel. Practical recommendations related to the field are also provided, serving as a valuable resource for use in the educational process.

Key words: Political stability, spiritual nourishment, social phenomenon, spiritual and educational work, military education, upbringing, patriotism, spirituality, higher military educational institutions, civic duty, national values, military personnel training, high spirituality.

Kirish. Xalqni xalq qiladigan ham, millatni dunyoga tanitadigan ham, odamni shaxs etadigan ham – ma’naviyatdir. Ma’naviyat tufayli mamlakatda siyosiy barqarorlik, tinchlik-osoyishtalik va fuqarolararo totuvlik saqlanmoqda, iqtisodiy

islohotlar yanada yuqori bosqichga ko‘tarildi, bozor munosabatlari insoniy mazmun va ijtimoiy himoya tamoyili bilan boyitildi, yangi dunyoqarash va ma’naviyat sohibi bo‘lgan tadbirkorlar sinfi shakllandi, ta’lim sohasi tubdan

yangilandi, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash tizimi yaratildi, ilm-fan rivojlandi, san'atimiz jahon sahnasiga chiqdi, sport elimizni dunyoga tanitdi. Xalqning e'tiqodi mustahkamlandi, ertangi kunga ishonchi ortdi, millatning ruhi va safarbarligi ko'tarildi, milliy g'urur tuyg'usi va iftixor hissi kuchaydi, milliy g'oya yoshlarning ongi va qalbida chuqur ildiz otdi. Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma'naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo'lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma'naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir. Zero, odamlarda axloq odob, imonu e'tiqod qanchalik kuchli bo'lsa, ularda vatanparvarlik, milliy va insoniy g'urur tuyg'usi, masuliyat va daxldorlik hissi qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyat ham shunchalik taraqqiy topadi, tinchlik – osoyishtalik, do'stlik va hamjihatlik barqaror bo'ladi.

Asosiy qism. Ma'naviyat moddiy kuchga aylanishi uchun so'z vijdonli har bir inson, har bir ongli fuqaro Vatan va xalq oldidagi o'z mas'uliyatini anglab yetishi, o'z oilasi va mahallasi, millati va yurti farovonligi yo'lida amaliy harakat qilishi, fidoyilik ko'rsatishi lozim. Inson barcha tirik jonzodlardan aql-zakovoti, ijodiy mehnati bilan birga imon-e'tiqodi bilan ham sifat jihatidan farq qiladi. E'tiqod – ongli insonning xatti-harakatlarini belgilovchi, uning hayot ma'nosini aks ettiruvchi, maqsadlarini ifodalovchi omildir. E'tiqod odam balog'atga yeta boshlagach, nima yaxshiyu nima yomonligini farq qila boshlagach shakllanadi. Uning shakllanishi va mustahkamlanishida kishining egallagan bilimlari, ozmi-ko'pmi hayotiy tajribasi, boshqa odamlar bilan munosabatidan orttirgan xulosalari va tarbiyasi zamin bo'ladi. Yuksak e'tiqod markazida olijanob g'oyalar, ulkan maqsad va ezgu intilishlar yotadi. E'tiqodi buzuq kimsa qabih niyatlari va g'arazli maqsadlari yo'lida nojo'ya ishlarga qo'l uradi. E'tiqodi yo'q odam esa, biror narsani aziz va muqaddas sanamaydi. Manqurtlik – insoniy xotira, milliy g'urur va odamgarchilikning yo'qligi e'tiqodsizlikning eng jirkanch ko'rinishidir [1].

Ma'naviy tarbiyaning samarasi inson hayotining barcha jabhalarida, jamiyat hayotining barcha sohalarida namoyon bo'ladi. Insonning mehnatga munosabati, halol va unumli mehnat qilib, farovon yashashi ham, davlat siyosatini tushunib, qonunlarni hurmat yoki inkor qilishi ham uning ma'naviyatiga bog'liq bo'ladi. Xalqning o'tmish ma'naviyati ming qadar yuksak bo'lmasin, yosh avlodga singmasa, meros bo'lib o'tmasa yo qabul qilinmasa – shu xalq tanazzulga uchraydi, o'z qiyofasi va qadrini yo'qotadi. Shu sababli ma'naviyatni tarbiyalash uzluksiz va doimiy, izchil va davomli bo'lishi lozim, buni millatning istiqboli taqozo etadi. O'zbekistonda ma'naviy tarbiya umumxalq ishi, davlat siyosatining muhim yo'nalishi, har bir ongli fuqaroning milliy burchi hisoblanadi. Abdulla Avloniyning, "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir", degan hikmati ma'naviy tarbiyaga ham to'liq taalluqlidir. Har bir inson kelajakda o'z Vatani haqiqiy fidoyisi bo'lib yashashi va faoliyat ko'rsatib borishi bilan uning kuch-qudratini va sha'n-shuhratini yanada mustahkamlash va yuksaltirish uchun yuqorida ta'kidlab o'tilgan muqaddas hikmatga asoslangan holda birinchi navbatda o'zini o'zi tarbiyalashni o'rganishi va keyin oila qurib farzandlarni, kasbi bo'yicha yosh vatanparvarlarimizni tarbiyalashdek mas'uliyatli ishga o'zini tayyorlashi kerak bo'ladi. Bizning ota-bobolarimiz doimo yaxshi insonlarni qadrlaganlar, hurmat qilganlar. Ayniqsa, olimu fuzalolarni, shuning uchun ham qabristonlar va madrasalar yonidan o'tayotgan vaqtlarida otdan va eshakdan tushib uni yetaklab o'tishgan. Bu bilan olamdan o'tgan barcha insonlar ruhiga hurmat ko'rsatishgan. Biz ulug'larimizga cheksiz hurmat

ko'rsatish bilan cheklanmaganmiz, balki, ularning qoldirgan pand nasihatlariga qat'iy amal qilishimiz bilan yurtimizni obod va doimo ozod bo'lishi yo'lida astoydil sa'y-harakat qilib yashagan avlodlar ajdodlarimiz.

Inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan hozirgi davrda mafkuraviy poligonlar yadro poligonlaridan ham katta kuchga ega bo'lib bormoqda. Boshqa mamlakatlar, ayniqsa yosh mustaqil davlatlar xalqlarini o'ziga g'oyaviy qaram qilish maqsadida g'araz kuchlar va turli geostrategik markazlar mafkuraviy, ruhiy, ma'naviy ta'sirning turli shakllari, usul va vositalarini ishga solmoqda. Xalq ma'naviyatini pasaytirish, yoshlarga o'z standartlarini singdirish, axloqsizlikni targ'ib qilish yo'li bilan g'oyaviy parokandalik va mafkuraviy zaiflikni yuzaga keltirishga urinishlar tobora ko'proq sodir bo'lmoqda. Yuksak ma'naviyat xalqimiz uchun, ayniqsa yosh avlod uchun o'ziga xos bir qalqon bo'lib, uni turli ofat va talafotlardan saqlaydi himoya qiladi.

Real hayotda, ma'naviyat har bir insonning millat, jamiyat, davlat hayoti, insonlararo bo'ladigan va ijtimoiy hayotga nisbatan bo'ladigan munosabatlarida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" e'lon qilingan Qarori harbiy xizmatchilar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uchun juda muhim hujjat sifatida doimo diqqat-e'tiborimiz markazida bo'lishi kerak [2].

Yer yuzidagi har bir millat o'ziga xos irodasi, histuyg'u, did, xulq, fe'l-atvordan iborat ma'naviy olamiga ega. Ma'naviy-axloqiy tarbiya uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanadigan jarayon bo'lib, u millat taraqqiyotida hayotbaxsh manba bo'lib xizmat qiladi. Millat taraqqiyotida ma'naviy omillar jamiyatda mavjud bo'lgan qator muammolarni hal qilishga, millat ijtimoiy-siyosiy hayoti jarayonlarini o'ziga xosligini aniqlash va ularga to'g'ri munosabatda bo'lishga imkon yaratadi.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya asosida oliy harbiy ta'lim muassasalarida har tomonlama yetuk, mustaqil fikrga ega haqiqiy vatanparvar ofiserlarni tayyorlashda har bir ofiserning ongida Vatan muqaddasligi, Vatan himoyasi muqaddas burch ekanini, davlat xavfsizligini himoya qilishda mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Vatan ozodligi yo'lida o'z jonini ayamay ozodlik yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo'llarini keng targ'ib etish asosida harbiy xizmatchilarda Vatanning betakrorligi, buyukligi, yagonaligini ofiserlar ongida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Milliy-ma'naviy merosimizni tarixiy ildizlarini o'rganish, ulardan o'mak olish asosida harbiy xizmatchilarga ezgulik an'alarini singdirish, milliy qadriyatlarimizga hurmat, sadoqat, poklik va mardlik tarzi asosida tarbiyalash har-bir tarbiyachining muqaddas burchidir. Ajdodlarimiz qoldirgan harbiy, ilmiy-falsafiy merosni o'rganish, uni chuqur tadqiq etish, harbiy jihatdan boy tariximizni bilish harbiy ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq faylasuflari ta'liloti Vatanni sevish, o'z millatini, xalqini, insonlarni asrab – avaylash, puxta bilim olish, axloqiy fazilatlariga ega bo'lishga undovchi ezgu g'oyalar katta ahamiyatga ega.

Tarixdan ma'lumki, harbiylarda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning negizini harbiylar hayotida ezgulik, o'zaro hurmat, hamjihatlik, insoniylikni qaror toptirish, yovuzlik, yot g'oyalarga qarshi kurashish tashkil etadi. Harbiy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy sohada siyosatning o'zak tamoyillarini falsafiy o'rganishda buyuk sarkardalarning vatanparvarlik, mustaqillik, bag'rikenglik kabi bunyodkor g'oyalarini ma'naviy-ma'rifiy ishlar orqali ofiserlar ongiga singdirib, sog'lom tafakkurli, ma'naviyati boy bo'lgan vatanparvarlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb

masalalaridan biridir. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi siyosatning harbiy ta'lim muassasalarida ob'ektiv zarurat sifatidagi o'rni beqiyosdir. Har qanday davlat yangi, zamonaviy, taraqqiy topgan jamiyat qurish, tinchlikni doimo saqlash uchun avvalo harbiy sohaga e'tiborni yanada kuchaytirishi maqsadga muvofiqdir. Jahon tajribasidan ma'lumki, inson tarixida tajovuzkor millatchilik, shovinizm, fashizm ruhidagi buzg'unchilikka xizmat qiladigan g'oya va mafkuralar ham bo'lib, ular oqibatida millionlab begunoh insonlarning qoni to'kilishiga, shaharlar va qishloqlar, xonadonlar vayron bo'lishiga olib kelgan. Bunday buzg'unchilik, inson yuragida o'chmas iz qoldirgan jarohatlar oqibatini bartaraf etish uchun kishilik jamiyatiga qancha vaqt, mehnat, mablag' va sabr-toqat kerak bo'lgan.

Xulosa. Bo'lajak ofiserlarning ma'naviy saviyasini va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an'alarimizga asoslangan vatanparvarlik va insonparvarlik sifatlarini yanada

yuksaltirishga erishish. Ularning ongu tafakkuriga Vatan himoyasi sharafligi va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat havfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirish lozim bo'ladi.

Milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish hamda tahlil etish, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli xayotini keng targ'ib etish asosida harbiy xizmatchilarda "O'zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi!" degan hayotiy e'tiqodni qaror toptirish muhimdir.

Bizning harbiy qism va bo'linmalarimiz zamonaviy qurollangan qo'shinlar bilan jang qilish va g'alabalarimizni ta'minlash uchun har birimiz o'zimizning hayotimizni qanchalik qimmatga, qadrga ega ekanligini va bizning hayotimizdan qancha insonlar (ota-onalar, rafiqalar, farzandlar, qavmi-qarindosh, barcha vatandoshlar) umidvor va manfaatdor ekanini anglab yetish lozim bo'ladi [3].

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.:O'zbekiston, 2017.
2. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. B.152-181.
3. Educating Young People in the Spirit of Military Patriotism — Akbarov A.T. (2023). Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг педагогик жараёни.
4. Raising Spiritual and Educational Work to a New Level in Uzbekistan — Turobova Z.U. (2024). Ўзбекистонда маънавий-маърифий ишлар ва уларни такомиллаштириш усуллари.
5. Spiritual-Moral in the New Uzbek Education System — Mardonkulova Z.Kh. (2022). Янги Ўзбекистон таълим тизимида маънавий-ахлоқий тарбия масалалари таҳлили.
6. Values Are a Factor of Spiritual Education — Mamatov M. (2023). Миллий ва умумансоний қадриятларнинг маънавий тарбиядаги роли.